

ABDULLA QODIRIY HAYOTI TARIXIDAN

*Andijon davlat pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Mahmudov Zoirbek Tohirjon o‘g‘li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining mumtoz namoyondasi, o‘zbek romanchilik maktabinin asoschisi Abdulla Qodiriy hayoti tarixidan bayon qilinadi. Maqola orqali Abdulla Qodiriyning jadid adabiyotiga kirib kelishi, hayot yollaridagi qiyinchiliklari haqidagi ma’lumotlarni ko‘rishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy oilasi, “Mushtum” jurnali, gazeta va jurnallar, “Xalq dushmani, ”, mukofot va ordeni, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi.

Buyuk adibimiz, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o‘zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.
(Shavkat Mirziyoyev).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma’rifatparvar jadidchilarning yana bir yirik nomoyondasi Abdulla Qodiriyidir. Abdulla Qodiriy nafaqat jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, balki jadid adabiyotining yirik vakilisdir. Abdulla Qodiriy umri davomizda o‘zbek xalqiga juda katta adabiy meros qoldirdi. Uning asarlari hozirgi kunda ham eng ko‘p kitobxonlarga ega asarlardir.

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ildi. Bo‘lajak adib hayot mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlari-yu ziddiyatlarini juda erta anglaydi. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho‘ng‘idi. Shu ma’noda adib o‘z tarjimayi holiga oid manbalarda o‘scha zamonlarni xotirlab shunday yozadi: “Men qaysi yilda va qaysi oyda tug‘ilganimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug‘ilib, yaqinlarimning so‘zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o‘tirgan yilda tug‘ilganman. Boshida boy oilada tug‘ildimmi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshg‘a to‘ymag‘onidan, ustum tuzukroq kiyim ko‘rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog‘I faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigon hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz” . Abdulla Qodiriy bolaligida duradgorlikni o‘rgandi; akasi bilan toqichilik qildi. Shuningdek, u esini tanigan chog‘idan boshlab, otasiga bo‘g‘ ishlariga qarashdi. Bu yumush unga umr bo‘yi hamroh bo‘lgani ma’lum gap. U dastlab musulmon maktabida, keyin rus-tuzem

maktabi hamda Abulqosim shayx madrasasida o‘qidi. Adibning otasi Qodir bobo Turkiston tarixida o‘tgan bir qancha hukmdorlar zamonida yashab, uzoq umr ko‘rdi. Abdulla Qodiriylar tarbiyasi, ijodi va romanlarining maydonga kelishiga otasidan eshitgan voqealardan kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham adib o‘z asarlarida otasini ehtirom bilan tilga oladi, hikoyalaridan birini otasiga bag‘ishlaydi. Adib o‘z asarlarida mo‘tabar onasi Josiyat bibi siyosidan ham prototib sifatida foydalangan bo‘lishi tabiiy, albatta.

Abdulla Qodiriylar 1914-yili Rahbarbonu Rasulmuhammad qiziga uylandi. Ulardan Nafisa, Habibulla, Adiba, Mas’ud va Anisa ismli uch qiz va ikki o‘g‘il tug‘iladi.

Abdulla Qodiriylar odamlar orasiga kirib, jamiyat dardlarini, ayniqsa, Oziq qo‘mitasining “Oziq ishlari” gazetasida ishlagan 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy muhit “o‘yinlari” ni kuzattdi. Yozuvchi o‘z vaqtida ijtimoiy hayotga, matbuot ishlariga faol aralasha boshlaydi. Abdulla Qodiriylar 1924-yil iyunidan 1925-yil iyun oylariga qadar Moskvada o‘qiydi. Demak, Abdulla Qodiriylar “eski shahar vaqf bo‘linmasi” hisobidan, uning iqtisodiy yordami bilan Moskvaga o‘qishga ketadi. Hayotiy dalillarni o‘rganishga ko‘ra, adibning Moskvadagi o‘qish davri roppa-rosa bir yilga – 1924-yil iyunidan 1925-yil iyun oylariga to‘g‘ri keladi. “Maskov xatlari” turkumini yozadi. 1926-yilda “Mushtum” jurnalida chiqqan “Yig‘indi gaplar” maqolasidagi “yuqori rahbarlarga tegadigan qaltis gaplari” uchun, ayrim muttaham hamkasblarining chaquvlari oqibatida adib 1926-yili 8-mart kuni qamoqqa olinadi. Shundan keyin Abdulla Qodiriylar hayoti va ijodida nisbatan o‘zgarishlar yuz berdi : ijtimoyi hayotga aralashuvi , matbuotdagi faolligi nisbatan susaydi.

1932-yili bir nechta o‘zbek adiblari bilan birga Moskvada Butunitifoq yozuvchilarini uyushmasining Tashkiliy qo‘mitasining majlisida qatnashadi. Shuningdek, 1934-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunitifoq yozuvchilarini uyushmasining 1-Quriltoyida ishtirok etadi. 1935-yil 10- mart Abdulla Qodiriylar “Yosh leninch” gazetasining adabiy to‘garagida yosh yozuvchilar bilan uchrashadi va ijodiy tajribasidan so‘zlab beradi. 1936-yil iyul oyida Qozon shahrida bo‘lib , Tatariston yozuvchilarining 1-Quriltoyida ishtirok etadi. Kolxzoz hayotidan olib yozmoqchi bo‘lgan yangi asariga manbalar to‘plash uchun Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezadi ; ijod bilan mashg‘ul bo‘ladi. Garchand adib go‘zal asarlar yozib, o‘z xalqining ma’naviy dunyosini bebaho asarlar bilan boyitayotgan bo‘lsa ham mustabid tuzum uning qadriga yetmadi. Qayta dushmanaga chiqardi. Adib 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olindi. Sherkon Qodiriyning yozishicha, o‘shanda tergov mahali ham: “Menga qo‘yilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yo‘lida har qanday, hech qanday jazodan, qiyonoqdan qo‘rqmayman. Agar otmoqchi bo‘lsalaring, ko‘kragimni kerib

turaman...”¹, deb mardona turadi. U cho‘zilgan tergovlardan keyin hech bir aybi isbotlanmagan holda 1938-yil 4-oktabrida xalq dushmani sifatida qatl etiladi.

Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin 1958-yildan boshlab, uning qutlug‘ nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. Adib va uning asarlari haqida qator tadqiqotlar va risolalar maydonga keldi.

1991-yil O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e’lon qilingandan so‘ngina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi.

Adibning farzandlari- Habibulla Qodiriy “Otam haqida”, Ma’sud Abdullayev esa “O‘tganlar yodi” asarlarini xotira yo‘sinda yozib, ularda adib hayot yo‘lining ma’lum bir qirrasini aks ettirishdi. Sherkon Qodiriyning “37-xonodon”, “Do‘lvor yigit” degan kitoblari nashr ettirildi. Abdulla Qodiriy haqida Xayriddin Sultonov “Ra’no gulining suvi”, “Moziydan bir sahifa”, Abdulhamid Ismoil “Jinlar bazmi yoxud kata o‘yin”, Xurshid Do‘stmuhamed “Yolg‘iz” kabi asarlar yozdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir arxiv manbalarini o‘rganish natijasida Nabijon Boqiyuning “Qatlnoma” nomli hujjatli qissasi maydonga keldi.

2019-yil dekabrida Toshkentda Abdulla Qodiriy yashagan uyda, shunigdek, poytaxtning Abdulla Qodiriy bog‘ida muzeylar tashkil etildi. Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy o‘zbek halqiga beqiyos ma’naviy boylik meros qilib ketti, boshiga qilich kelganda hamadolatni sharafladi, xalqni ma’naviyatga, ozodlikka chorladi. O‘zbek adabiyoti olamida birnichi bo‘lib romanchilikka asos soldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. Yoshlar Nashriyoti uyi. T-2022y
2. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. “Zabarjad media”, T-2022y.
3. Qodiriyni qo‘msab. Abdulla Qodiriy nomidagi xalqaro merosi nashriyoti. 1994y. 6-bet.
4. Ziyoruz.uz.

¹ Qodiriyni qo‘msab. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. 6-bet.